

KOMORBID OVQAT HAZM QILISH TIZIMI PATOLOGIYASI FONIDA YURAK ISHEMIK KASALLIGIDA RITM VA O'TKAZUVCHANLIK BUZILISHLARINING SUTKALIK MONITORING ASOSIDA BAHOLANISHI

Islomjon Madaminov Qurbonali o'gli

University of Business and Science "Umumkasbiy fanlar kafedrası" o'qituvchisi.

Isafov Jahongir Inomjon o'g'li

Namangan Davlat Universiteti "Klinik fanlar kafedrası" stajyor-oqituvchisi.

Bunyodjon Mamatvaliyev Rahmonali o'g'li

University of Business and Science "Tibbiyot kafedrası" o'qituvchisi.

Nosirov Temurbek Isroiljon o'g'li

University of Business and Science "Tibbiyot kafedrası" o'qituvchisi.

imadaminov1994@gmail.com

isaqovjaxon@gmail.com

medicbmorpholog@gmail.com

nosirovtemurbek809@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18309343>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurak ishemik kasalligi, turg'un zo'riqish stenokardiyasi surunkali pankreatit bilan birga kechganda yurak ritmi buzilishlarining xususiyatlari sutkalik EKG-xolter monitoring asosida o'rganildi. Tadqiqot natijalari komorbid holatda yurak ritmi buzilishlari og'irroq kechishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: yurak ishemik kasalligi, turg'un zo'riqish stenokardiyasi, surunkali pankreatit, yurak ritmi buzilishlari, EKG-xolter monitoring.

Аннотация. В статье изучены нарушения ритма сердца у пациентов с ишемической болезнью сердца и стабильной стенокардией напряжения в сочетании с хроническим панкреатитом на основе суточного ЭКГ-холтеровского мониторингирования.

Ключевые слова: ишемическая болезнь сердца, стабильная стенокардия напряжения, хронический панкреатит, нарушения ритма сердца, холтеровское мониторирование.

Annotation. This article analyzes cardiac rhythm disorders in patients with ischemic heart disease and stable angina pectoris combined with chronic pancreatitis using 24-hour Holter ECG monitoring.

Key words: ischemic heart disease, stable angina pectoris, chronic pancreatitis, cardiac arrhythmias, Holter ECG monitoring.

Kirish

Bugungi kunda yurak-qon tomir kasalliklari dunyo bo'yicha o'lim va nogironlikning yetakchi sababi bo'lib qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari umumiy o'lim holatlarining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadi. Ushbu kasalliklarning boshqa surunkali patologiyalar bilan komorbid holatda kechishi esa klinik kechishni og'irlashtirib, asoratlar xavfini sezilarli darajada oshiradi.

Yurak ishemik kasalligi (YIK), xususan turg'un zo'riqish stenokardiyasi, ko'pincha ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari bilan birga uchraydi. Surunkali pankreatit (SP) metabolik, elektrolit va neyrohumoral o'zgarishlar orqali miokardning elektrofiziologik barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, surunkali pankreatit bilan og'riqan bemorlarda hayot davomiyligi o'rtacha 7–10 yilga qisqaradi, yurak-qon tomir asoratlari, xususan miokard infarkti rivojlanish xavfi esa 1,5–1,6 barobarga oshadi.

Shu bois YIK va surunkali pankreatitning birgalikda kechishida yurak ritmi buzilishlarini chuqur tahlil qilish, ayniqsa sutkalik EKG-xolter monitoring yordamida baholash, klinik amaliyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi

Yurak ishemik kasalligi, turg'un zo'riqish stenokardiyasining surunkali pankreatit bilan komorbid kechishida yurak ritmi buzilishlarini sutkalik EKG-xolter monitoring asosida qiyosiy tahlil qilish.

Material va metodlar

Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy – amaliy tibbiyot markazi Namangan filiali kardiologiya va kardioreabilitatsiya bo'limlarida davolangan 62 nafar yurak ishemik kasalligiga chalingan bemorlarda o'tkazildi. Bemorlar ikki guruhga ajratildi:


Asosiy guruh – turg'un zo'riqish stenokardiyasi II–III funksional sinf va surunkali pankreatit bilan kechgan 32 nafar bemor (o'rtacha yosh: $60,3 \pm 2,15$ yosh).

Nazorat guruhi – turg'un zo'riqish stenokardiyasi II–III funksional sinf, ammo surunkali pankreatitsiz kechgan 30 nafar bemor (o'rtacha yosh: $55,5 \pm 1,20$ yosh).

Barcha bemorlarga 24 soatlik EKG-xolter monitoring tekshiruvi o'tkazildi (Kontek, TLK5000/TLK9803). Yurak ishemik kasalligi tashxisi JSST (2018) mezonlari asosida qo'yildi.

Surunkali pankreatit tashxisi klinik, laborator va ultratovush tekshiruvlari asosida tasdiqlandi.

Yurak ritmi buzilishlarining guruhlar bo'yicha taqsimlanishi



Tadqiqotga o'tkir koronar sindrom, miokard infarkti, insult, surunkali yurak yetishmovchiligi va o'tkir qorin patologiyasi bo'lgan bemorlar kiritilmadi. Statistik tahlil MS Excel 2016 dasturi yordamida amalga oshirildi.

Natijalar

Sutkalik EKG-xolter monitoring natijalariga ko'ra, asosiy guruh bemorlarida yurak ritmi buzilishlari nazorat guruhiga nisbatan ko'proq aniqlangan.

Jumladan, asosiy guruh bemorlarining 66,6% ida supraventrikulyar ekstrasistoliyalar, 75% ida qorinchalar ekstrasistoliyalari qayd etildi. Qorinchalar ekstrasistoliyalarining hayot uchun xavfli shakllari – bigeminiya, trigeminiya va juftlashgan ekstrasistoliyalar asosiy guruhda ustunlik qildi.

Nazorat guruhida esa supraventrikulyar ekstrasistoliyalar 50% holatda, qorinchalar ekstrasistoliyalari 56,2% holatda uchradi. Statistik jihatdan ishonchli farq aniqlanmagan bo'lsa-da, sifat jihatidan og'ir ritm buzilishlari asosiy guruhda ko'proq kuzatildi. Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, surunkali pankreatit bilan kechgan stenokardiyada yurak ritmi buzilishlari bilan o'rtacha kuchdagi musbat bog'liqlik ($r = 0,38$), pankreatitsiz holatlarda esa kuchsiz bog'liqlik ($r = 0,18$) aniqlandi.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, surunkali pankreatit yurak ishemik kasalligi kechishida yurak ritmi buzilishlarini kuchaytiruvchi muhim omil hisoblanadi. Ovqat hazm qilish tizimidagi surunkali yallig'lanish jarayonlari elektrolitlar muvozanatining buzilishi, metabolik va neyrohumoral o'zgarishlar orqali miokardning elektr barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, YIK va surunkali pankreatit komorbid holatida impuls hosil bo'lishi va o'tkazuvchanlik buzilishlari nazorat guruhiga nisbatan 14–15% ga yuqori bo'ladi. Bizning tadqiqot natijalarimiz ham ushbu ma'lumotlarga mos kelib, sutkalik EKG-xolter monitoringning diagnostik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa

Yurak ishemik kasalligi va surunkali pankreatit bilan komorbid kechgan bemorlarda yurak ritmi buzilishlari ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

Bir martalik EKG tekshiruvi yurak ritmi buzilishlarini to'liq aniqlash uchun yetarli emas.

Sutkalik EKG-xolter monitoring yurak ritmi va o'tkazuvchanlik buzilishlarini aniqlashda yuqori diagnostik ahamiyatga ega bo'lib, komorbid holatdagi bemorlarda majburiy tekshiruv usuli sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Абдурахманова А.И. Безболевая ишемия миокарда (патогенез,
2. диагностика, лечение, прогноз)/ А.И. Абдрахманова, С.Д. Маянская, И. Л.
3. Сердюк, Е.В. Малышева // Практическая медицина. – 2015. – Т. 4, № 52. – С.34
4. Агеев Ф.Т. Стабильной стенокардии напряжения: 10 лет знакомства
5. / Ф.Т. Агеев // Журнал Сердечная недостаточность. - 2017. – Т. 11, №1. – С. 69-76.
6. Агмадова З.М. Особенности прогрессирования ремоделирования
7. миокарда у больных с различными формами нестабильной стенокардии / З.М.
8. Агмадова, А.Н. Колаева // Кардиология. - 2014. - №7. – С.9-16.
9. Акашева Д.У. Сердце и возраст (часть II): клинические проявления
10. старения / Д.У. Акашева, Е.В. Плохова, И.Д. Стражеско, Е.Н. Дудинская, О.Н.
11. Ткачева // Кардиоваскулярная терапия и профилактика. - 2013. – Т. 12, № 4. - С.86-90.
12. Алесеева О.П. Кардиальный синдром Х: особенности патогенеза,

13. клиники и лечения/ О.П.Алесеова, О.П. Долбин // Клиническая медицина. – 2009. - № 12. –С. 65-69.
14. Аксельрод А.С., Чомахидзе П.Ш., Сыркин
<https://www.booksmed.com/kardiologiya/2832-holterovskoe-monitorirovanie-ekg-akselrod.html>. - 2007. - №3. – 112с. Volume 1 Issue 7, October 2021 А.Л. ISSN 2181-2020